Nazarov Sanjar Nasridinovich	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
Sirojov Oxunjon Odil o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI	1015
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELII	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaoqu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSİYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Ibayev Xo'jabek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası katta o'qituvchisi

Ergashev Olloyor Furqat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0003-2654-1534
Email: ergashevolloyor53@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida tashqi audit tizimining institutsional rivojlanish tendensiyalari, xalqaro audit standartlari (ISA) bilan uyg'unlashuv darajasi hamda raqamli texnologiyalarning audit sifatiga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida EY, PwC, KPMG va Deloitte kabi yirik xalqaro auditorlik tashkilotlarining ilg'or amaliy tajribalari asosida milliy audit tizimining holati, auditorlar malaka darajasi, korporativ boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi hamda ichki nazorat tizimlarining institutsional yetukligi baholandi. Olingan natijalar tashqi audit faoliyatini modernizatsiya qilish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish va raqamli audit texnologiyalarini keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tashqi audit, ISA, raqamli audit, auditor malakasi, ichki nazorat tizimi, korporativ boshqaruv, moliyaviy shaffoflik.

Abstract. This study provides a comprehensive analysis of the institutional development trends of the external audit system in the Republic of Uzbekistan, its alignment with International Standards on Auditing (ISA), and the impact of digital technologies on audit quality. The research evaluated the state of the national audit system, auditors' competency levels, effectiveness of corporate governance mechanisms, and institutional maturity of internal control systems based on the best practices of major international audit firms such as EY, PwC, KPMG, and Deloitte. The findings highlight the need to modernize external audit activities, enhance financial reporting transparency, and broadly implement digital audit technologies.

Key words: external audit, ISA, digital audit, auditor competency, internal control system, corporate governance, financial transparency.

Аннотация. В данном исследовании комплексно анализируются тенденции институционального развития системы внешнего аудита в Республике Узбекистан, степень соответствия международным стандартам аудита (ISA) и влияние цифровых технологий на качество аудита. В ходе исследования на основе передового опыта крупных международных аудиторских компаний, таких как EY, PwC, KPMG и Deloitte, оценивалось состояние национальной аудиторской системы, уровень квалификации аудиторов, эффективность механизмов корпоративного управления и институциональная зрелость систем внутреннего контроля. Полученные результаты подчеркивают необходимость модернизации внешнего аудита, повышения прозрачности финансовой отчетности и широкого внедрения цифровых технологий аудита.

Ключевые слова: внешний аудит, ISA, цифровой аудит, квалификация аудитора, система внутреннего контроля, корпоративное управление, финансовая прозрачность.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida bozor mexanizmlarining chuqurlashuvi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy mustaqilligi ortishi hamda investitsiya muhitining liberallashtirish tashqi audit institutining



ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Tashqi audit korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini mustaqil ekspertiza asosida baholash, ichki nazorat tizimlarining samaradorligini aniqlash hamda moliyaviy axborotning ishonchlilikini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim professional faoliyat turi hisoblanadi. Shu jihatdan u milliy iqtisodiyotda institutsional infratuzilmaning ajralmas elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Global iqtisodiy tizimda tashqi audit moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash, korporativ boshqaruv sifati va investitsiya muhitining barqarorligini mustahkamlashda muhim omil sifatida qaraladi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham ushbu jarayonlarning jadallashuvi tashqi audit tizimini rivojlantirishni iqtisodiy barqarorlikning muhim sharti sifatida talqin qilish imkonini bermoqda.

Milliy audit tizimining shakllanishi buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish hamda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, auditorlarni sertifikatlashtirish tizimi, audit tashkilotlarini akkreditatsiya qilish, malaka oshirish mexanizmlarini takomillashtirish tashqi audit xizmatlari bozorining institutsional barqarorligini mustahkamladi.

Tashqi audit samaradorligi auditorlarning professional kompetensiyasi, ichki nazorat tizimlarining rivojlanganlik darajasi, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi hamda korporativ boshqaruv tizimining institutsional shakllanishi bilan bevosita bog'liq. Jahon amaliyotida tashqi audit jarayonlari xalqaro audit standartlari, riskga asoslangan audit metodologiyasi hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, milliy audit tizimini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarning audit jarayonlariga joriy etilishi audit sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Big Data tahlili, ERP tizimlari integratsiyasi, bulutli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt asosidagi audit platformalari auditorlarga moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa audit tekshiruvlarining aniqligini oshiradi, inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytiradi va risklarni erta aniqlash imkoniyatini kengaytiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi audit tizimining rivojlanishi bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida auditning nazariy va metodologik asoslari, xususan, ichki audit metodologiyasini takomillashtirish (Эшпулатова & Ташназаров, 2022) hamda audit xizmatlari sifatini nazorat qilish usullari (Xalmuratovich & Turdimuratovna, 2020) bo'yicha salmoqli tadqiqotlar olib borilmoqda (Masharipov et al., 2023). Shunga qaramay, moliyaviy hisobot sifatini oshirishda mustaqil auditning roli kam o'rganilgan bo'lib, tekshirilgan va tekshirilmagan moliyaviy hisobotlar sifatini qiyoslashga qaratilgan tadqiqotlar cheklangan (Исаев, 2023).

Hozirgi davrda raqamlashtirish sharoitida tashqi audit tizimini axborot texnologiyalari asosida tashkil etish muammolari va uni takomillashtirish yo'nalishlari dolzarb hisoblanadi (Ismailovich, 2025). Xususan, moliyaviy hisobotdagi sezilarli xatolarni aniqlash va fribgarlikning oldini olishda mustaqil auditning ahamiyatini chuqurroq o'rganish, shuningdek, hisob jarayonlarini raqamlashtirish sharoitida uning ahamiyatini belgilash muhimdir (Ирина, 2025). Shu nuqtai nazardan, audit faoliyatini raqamli iqtisodiyot sharoitida amalga oshirish va uni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratish lozim (Онешко et al., 2021).

Uzoqdan turib audit xizmatlarini tashkil etish va o'tkazish maqsadiga erishish uchun IT-texnologiya vositalaridan foydalanish bilan birga, ilg'or avtomatlashtirilgan audit dasturlari hamda moliyaviy tahlil dasturlarini joriy etish, elektron raqamli imzo xizmatidan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi (Yariev, 2023).

D.V. Varlamova va L.D. Alekseeva tomonidan raqamli auditning «mahsulot yaratishning har bir bosqichida audit uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish» sifatida ta'riflari hamda A.V. Petux va M.F. Safonovlarning raqamli audit rivojlanishi bilan audit o'tkazish texnologiyasi, auditor roli va yetakchi auditorlik kompaniyalarining biznes modellari o'zgarishi haqidagi g'oyalari, axborot texnologiyalarini joriy etish orqali auditning sifatini oshirish muhimligini ko'rsatadi (Назарова & Malko, 2025).

Shu bilan birga, zamonaviy raqamli audit texnologiyalari, jumladan katta hajmli ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyasi, robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish va bulutli hisoblashlar audit sifatini sezilarli darajada oshirishga, auditorlar rolini transformatsiya qilishga va korporativ boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiladi (Fariah, 2023; Буллан & Прокопович, 2023).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasida tashqi audit tizimining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, uning institutsional xususiyatlarini baholash hamda takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari, xalqaro audit standartlari (ISA) talablari hamda korporativ boshqaruv nazariyasi asosida shakllantirildi.



Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv (system approach) asosida tashqi audit tizimi iqtisodiy boshqaruvning muhim institutsional elementi sifatida o'rganildi. Ushbu yondashuv tashqi auditning ichki nazorat tizimi, korporativ boshqaruv mexanizmlari, moliyaviy hisobot sifati hamda investitsion muhit bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy asosini audit sifati, korporativ boshqaruv va moliyaviy nazoratga oid ilmiy konsepsiyalar tashkil etadi. Xususan, audit sifati nazariyasi (Audit Quality Theory), agentlik nazariyasi (Agency Theory), manfaatdor tomonlar nazariyasi (Stakeholder Theory) hamda institutsional iqtisodiyot yondashuvlaridan foydalanildi. Ushbu nazariy yondashuvlar tashqi auditning iqtisodiy mazmunini ochib berish, uning korporativ boshqaruv tizimidagi rolini asoslash hamda audit samaradorligini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida tashqi audit tizimining rivojlanishi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda moliyaviy shaffoflikni oshirish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Tashqi audit instituti xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ishonchligini ta'minlash, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini tasdiqlash hamda investorlar uchun ochiq axborot muhitini yaratishda muhim institutsional instrument sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tashqi audit tizimining rivojlanishi quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshmoqda:

- xalqaro audit standartlariga (ISA) moslashish darajasining oshib borishi;
- korporativ boshqaruv tizimida shaffoflik tamoyillarining kuchayishi;
- ichki nazorat tizimlarining institutsional rivojlanishi;
- auditorlarning professional kompetensiyasini oshirish mexanizmlarining kengayishi;
- audit jarayonlariga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda tashqi audit tizimi korxonalarning moliyaviy intizomini mustahkamlash bilan bir qatorda iqtisodiy risklarni boshqarish instrumenti sifatida ham xizmat qilmoqda. Ayniqsa, korporativ boshqaruv tizimida audit qo'mitasi, ichki audit xizmati hamda risk-menejment tizimlari bilan integratsiyalashgan tashqi audit modeli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

1-jadval. Tashqi audit tizimining institutsional samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Mazmuni	Iqtisodiy natija
Moliyaviy hisobotlarning ishonchligi	Audit tekshiruvi natijasida moliyaviy axborotning haqqoniyligi ta'minlanadi	Investorlar ishonchi oshadi
Ichki nazorat tizimi sifati	Ichki nazorat mexanizmlari audit jarayonini qo'llab-quvvatlaydi	Risklar kamayadi
Auditorlar malakasi	Xalqaro standartlar asosida professional bilim darajasi oshadi	Audit sifati oshadi
Raqamli audit texnologiyalari	Data analytics va AI asosida audit tekshiruvi amalga oshiriladi	Tekshiruv tezligi oshadi
Korporativ boshqaruv darajasi	Shaffoflik va hisobdorlik darajasi oshadi	Investitsion jozibadorlik ortadi

Manba: muallif ishlanmasi.

Tahlillar natijasida aniqlandiki, tashqi audit tizimining samaradorligi ko'p jihatdan ichki nazorat tizimining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Ichki nazorat tizimi yetuk bo'lgan korxonalarda audit dalillarini yig'ish jarayoni soddalashadi, audit riski kamayadi va auditorlik xulosalarining ishonchlilik darajasi oshadi.

Shuningdek, xalqaro audit standartlariga moslashish audit jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. ISA talablari asosida audit dalillarini yig'ish, audit risklarini baholash hamda moliyaviy hisobotlarni tekshirish metodologiyasi takomillashadi.

Raqamli audit texnologiyalarining joriy etilishi audit jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili hamda ERP tizimlari asosida audit tekshiruvlarini amalga oshirish moliyaviy xatoliklarni aniqlash imkoniyatini kengaytiradi.



2-jadval. Tashqi audit tizimini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar

Muammolar	Ta'siri	Takomillashtirish yo'nalishi
Auditorlar malakasining yetarli emasligi	Audit sifati pasayadi	xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish
Ichki nazorat tizimi rivojlanmaganligi	audit dalillarini yig'ish qiyinlashadi	COSO modeli asosida ichki nazoratni kuchaytirish
Raqamli audit texnologiyalari yetarli emas	audit samaradorligi past	IT audit tizimlarini joriy etish
Moliyaviy hisobot madaniyatining pastligi	shaffoflik darajasi pasayadi	korporativ boshqaruv kodeksini kuchaytirish
Audit natijalarining ochiq emasligi	investor ishonchi kamayadi	axborot ochiqligini oshirish

Manba: muallif ishlanmasi

Tashqi audit samaradorligi quyidagi asosiy komponentlar o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadi:

$$EA = f (ISA + IC + CG + DA + AQ)$$

bu yerda:

EA – tashqi audit samaradorligi;

ISA – xalqaro audit standartlari darajasi;

IC – ichki nazorat tizimi sifati;

CG – korporativ boshqaruv darajasi;

DA – raqamli audit texnologiyalari;

AQ – auditorlar malakasi.

Mazkur model tashqi audit tizimining kompleks baholash imkonini beradi va audit sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tashqi audit tizimini takomillashtirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim shartlaridan biridir. Xalqaro audit standartlarini joriy etish, auditorlarning professional kompetensiyasini oshirish hamda ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish orqali audit sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Tashqi audit tizimining rivojlanishi:

- moliyaviy shaffoflikni oshiradi;
- investorlar ishonchini kuchaytiradi;
- korporativ boshqaruv samaradorligini oshiradi;
- iqtisodiy risklarni kamaytiradi;
- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi.

Natijada, tashqi audit tizimi iqtisodiy boshqaruvning muhim institutsional mexanizmi sifatida shakllanadi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida tashqi audit tizimi milliy iqtisodiyotda moliyaviy intizomni mustahkamlash, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish hamda investitsion muhitning jozibadorligini kuchaytirishda muhim institutsional mexanizm sifatida shakllanmoqda. So'nggi yillarda buxgalteriya hisobi va audit sohasida amalga oshirilgan islohotlar, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining joriy etilishi hamda auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashuvi tashqi audit tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishiga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, tashqi audit tizimining samaradorligi auditorlarning professional kompetensiyasi, ichki nazorat tizimlarining rivojlanganlik darajasi, korporativ boshqaruv tamoyillarining amaliyotga joriy etilishi hamda raqamli audit texnologiyalarining qo'llanilishi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, xalqaro audit standartlari (ISA) asosida audit jarayonlarini tashkil etish moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va taqqoslanish darajasini oshiradi, bu esa investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tashqi audit tizimi rivojlanishining asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik darajasi oshmoqda;
- korporativ boshqaruv tizimida shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari kuchaymoqda;
- audit natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish darajasi ortmoqda;
- ichki nazorat tizimlarining institutsional rivojlanish tendensiyasi kuzatilmoqda;
- xalqaro audit metodologiyasiga integratsiyalashuv kuchaymoqda.



Shu bilan birga, tadqiqot davomida tashqi audit tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki nazorat tizimlarining yetarli darajada shakllanmaganligi, auditorlarning malaka darajasi bo'yicha tafovutlar mavjudligi, moliyaviy hisobot madaniyatining pastligi hamda audit natijalarining jamoatchilikka ochiqlik darajasi yetarli emasligi tashqi audit samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida audit jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi tashqi audit sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Big Data tahlili, sun'iy intellekt, masofaviy audit platformalari hamda ERP tizimlari asosida audit jarayonlarini avtomatlashtirish auditorlik tekshiruvlarining tezkorligi va aniqligini oshirish imkonini beradi. Shu sababli, audit jarayonlarini raqamlashtirish tashqi audit tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, O'zbekiston Respublikasida tashqi audit tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Auditorlarning professional kompetensiyasini oshirish: Auditorlarning malaka darajasini oshirish maqsadida xalqaro sertifikatlash tizimlari (ACCA, CPA, CIA va boshqalar) asosida uzluksiz malaka oshirish tizimini joriy etish zarur. Auditorlik tashkilotlarida professional treninglar, amaliy seminarlar va xalqaro tajriba almashish dasturlarini kengaytirish audit sifatini oshirishga xizmat qiladi.

2. Ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish: Korxonalarda ichki nazorat tizimlarini COSO modeli asosida takomillashtirish, risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish hamda ichki audit xizmatining institutsional rolini kuchaytirish tashqi audit samaradorligini oshiradi.

3. Raqamli audit texnologiyalarini keng joriy etish: Audit jarayonlarida sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili (data analytics), blokcheyn texnologiyalari hamda masofaviy audit platformalaridan foydalanish audit tekshiruvlarining tezkorligi va aniqligini oshiradi. Shu bilan birga, IT-audit yo'nalishini rivojlantirish zarur.

4. Korporativ boshqaruv tizimida audit rolini kuchaytirish: Audit qo'mitalari faoliyatini takomillashtirish, mustaqil direktorlar institutini rivojlantirish hamda audit natijalaridan strategik qarorlar qabul qilishda foydalanish korporativ boshqaruv samaradorligini oshiradi.

5. Moliyaviy hisobotlar shaffofligini oshirish: Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tayyorlashni kengaytirish, audit natijalarining ochiqligini ta'minlash hamda manfaatdor tomonlar uchun axborotdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish investitsion muhitni yaxshilaydi.

6. Audit natijalaridan iqtisodiy boshqaruvda foydalanish: Audit xulosalarini faqat nazorat mexanizmi sifatida emas, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda strategik axborot manbai sifatida qo'llash zarur.

7. Milliy audit tizimini xalqaro standartlarga integratsiya qilish: ISA standartlari asosida audit metodologiyasini takomillashtirish, xalqaro audit tajribasini joriy etish hamda milliy audit standartlarini global talablar bilan uyg'unlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. DeAngelo, L. E. (1981). Auditor size and audit quality. *Journal of Accounting and Economics*, 3(3), 183–199.
2. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). (2020). *Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements*. New York: IFAC.
3. Francis, J. R. (2011). A framework for understanding audit quality. *Auditing: A Journal of Practice & Theory*, 30(2), 125–152.
4. Knechel, W. R., Salterio, S. E., & Ballou, B. (2016). *Auditing: Assurance and Risk*. New York: McGraw-Hill Education.
5. Appelbaum, D., Kogan, A., & Vasarhelyi, M. (2017). Big data and advanced analytics in external auditing. *Accounting Horizons*, 31(3), 63–80.
6. Cohen, A., & Sayag, G. (2010). The effectiveness of internal auditing: An empirical examination of its determinants in Israeli organizations. *Managerial Auditing Journal*, 25(3), 296–307.
7. Boynton, W. C., Johnson, R. N., & Kell, W. G. (2006). *Modern Auditing: Assurance Services and the Integrity of Financial Reporting*. John Wiley & Sons.
8. OECD. (2015). *G20/OECD Principles of Corporate Governance*. Paris: OECD Publishing.
9. COSO. (2013). *Internal Control – Integrated Framework*. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission.
10. IFAC. (2022). *International Standards on Auditing (ISA)*. International Federation of Accountants.
11. Porter, B., Simon, J., & Hatherly, D. (2014). *Principles of External Auditing*. John Wiley & Sons.
12. Arens, A., Elder, R., & Beasley, M. (2017). *Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach*. Pearson Education.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-sentabrdagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". PF-6318-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5664773>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-iyundagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4752-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4857409>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
